

**SHAYXULISLOMLIK LAVOZIMINING SHAKLLANISHI VA EBUSUUD  
AFANDI MEROSI****Qorjavov Islom Asliddin o‘g‘li***Jizzax davlat pedagogika universiteti**Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi**+9989 94 486 2211*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola Islom dinida jamiyatning ichki barqarorligini saqlashda muhim vosita bo‘lgan, diniy qadriyatlarning davlat siyosatida inobatga olinishi hamda siyosiy qarorlarning xalq ongida qabul qilinishini ta‘minlagan Shayxulislomlik lavozimi haqida so‘z yuritadi. Shuningdek, Usmonlilar davlatida ilk bor davlat apparati sifatida qaralgan ushbu lavozimni o‘z cho‘qqisiga olib chiqa olgan shaxs — Mehmed ibn Mustafa al-Imodiy faoliyati haqida ham ma‘lumot beradi.*

**Kalit so‘zlar.** *Ulamo, mazhab, mufti, shariat, farveyi beyza, serjant, tafsir, arbob, kodeks, karag‘oz, kofe, sufiylar, fatvo, aqida, lavozim.*

**Annotation.** *This article discusses the position of Shaykh al-Islam, which served as an important instrument in preserving the internal stability of society in Islam, ensuring that religious values were taken into account in state policy, and that political decisions were accepted in the public consciousness. It also provides information about the activities of Mehmed ibn Mustafa al-Imadi, the figure who elevated this position—first recognized as part of the state apparatus in the Ottoman Empire—to its peak.*

**Keywords.** *Ulama, Madhhab, Mufti, Sharia, Farvey-i Beyza, Sergeant, Tafsir, Aristocrat, Code, Karagöz, Coffee, Sufis, Fatwa, Aqidah, Position.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается должность шейх-уль-ислама, которая в исламе служила важным инструментом сохранения внутренней стабильности общества, обеспечивая учет религиозных ценностей в государственной политике, а также принятие политических решений в общественном сознании. Кроме того, в статье представлена информация о деятельности Мехмеда ибн Мустафы аль-Имади — личности, которая сумела вывести эту должность, впервые рассматривавшуюся в Османской империи как часть государственного аппарата, на вершину своего развития.*

**Ключевые слова.** *Улема, мазхаб, муфтий, шариат, Фарвейи Бейза, сержант, тафсир, аристократ, кодекс, Карагёз, кофе, суфии, фетва, акыда, должность.*

Islom dunyosida diniy-huquqiy masalalarni hal qiluvchi oliy darajadagi ulamolar har doim jamiyatning siyosiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin egallab kelgan. Usmonlilar davlati (1299–1922) tuzilmalarida bu vazifa Shayxulislom unvoni bilan mustahkamlandi. Shayxulislom — davlatning eng yuqori diniy rahbari, muftiylar rahnamosi va shariat bo‘yicha so‘nggi so‘z aytuvchi arbob sifatida tanilgan. Uning vakolatlari nafaqat diniy hukmlar chiqarish, balki siyosiy qarorlarni shar‘iy jihatdan tasdiqlash yoki rad etishni ham o‘z ichiga olgan.

Shayxulislom atamasining kelib chiqishi;

- “Shayx” – kata, ulug‘, ilimli kishi.
- “Islom” – musulmon dini.

Demak, Shayxulislom so‘zma-so‘z “Islomning eng ulug‘ ulamosi” yoki “Islom dini rahnamosi” degan ma‘noni bildiradi. Bu atama IX – X asrlarda musulmon olamida yirik faqih va muhaddislarga hurmat sifatida ishlatilgan<sup>23</sup>. Abbosiylar davrida Bag‘dod, Damashq, Qohira kabi markazlarda eng yetuk olimlar sharafiga *shayx al-islom* unvoni berilgan, lekin bu rasmiy lavozim emas edi. Shayxulislom deb bir necha ulamolarga laqab (qiladigan ishiga kōra) berilgan.

Shayx Abdul Fattoh abu Ğudda aytadilar: “Shayxulislom laqabi Usmoniy xalifalar davrida (har bir) diniy imomlik vazifasini bajargan kishiga nisbatan ishlatilib eng katta olim esa musulmonlar sultoni huzurida bōlgan. Shu ma‘noda shayxulislom vazifiy laqab deyish mumkin. Shuni ham bilib qōyish kerakki, sobiq olimlar esa bu laqabni Qu‘ron va sunnat ilmlarida, fazilat-u namunalikda yuqori darajaga yetgan, ilmu din ishlarida musulmonlar murojaat qiladigan kishiga nisbatan aytishgan. Masalan, Imom Buxoriy yoki Fahriddin al-Roziy kabi allomalar ham zamondoshlari tomonidan “Shayxulislom” deb atalgan, ammo ular davlat apparatiga bevosita bog‘liq bo‘lmagan. Rasmiy lavozimga aylanishi esa XIV asrdan boshlab Usmonli davlatiga to‘g‘ri keladi. Usmonlilar “Shayxulislom”ni davlatning bosh muftisi darajasida tayinlay boshlaganlar<sup>24</sup>. Shayxulislomlar sulton tomonidan tayinlanar va davlatning barcha diniy-huquqiy ishlariga rahbarlik qilardi. Shayxulislomning eng asosiy vazifasi diniy, siyosiy va dunyoviy masalalarda hanafiy mazhabiga muvofiq fatvo berishdir. Fatvolar odatda fatvo aminlar tomonidan yozilar, javob bo‘limlari esa shayxulislomning shaxsan o‘zi tomonidan yozilgan va imzolangan.

Vakolatlari:

- Fatvo berish (davlat siyosati, qonunlar va shariat masalalarida).
- Qozilar va diniy mansabdorlarni tayinlash.

<sup>23</sup> Z.Choriyev “ Tarixiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati „, T. 2002-yil. 264-bet.

<sup>24</sup> Encyclopaedia of Islam (Brill) “Shaykh al-Islām” maqolasi. 2-chi nashr: 1954–2005; Umumiy ensiklopedik ma‘lumotlar (ensiklopediyaning keng miqyosli va seriyali nashrlari asosida).

- Shariatga zid qonunlarni bekor qilish.
- Zarurat tug‘ilganda sultonga maslahat berish yoki unga qarshi fatvo chiqarish.

Tarixda shunday holatlar bo‘lganki, shayxulislom fatvosi bilan sulton taxtdan tushirilgan (masalan, Sulton Ibrohim 1648-yilda). Usmoniylarda Shayxulislomlikning o‘rnatilishi tarixi va bu lavozimga kim birinchi bo‘lib tayinlangani haqida turli iddaolar mavjud<sup>25</sup>. Ko‘p yillar Bursa qozisi bo‘lib ishlagan Mulla Fanariyning 1425-yilda Bursa muftiyiligiga tayinlanishi odatda Usmonlilarda muftiylik va shayxulislomning boshlanishi sifatida qabul qilinadi. Biroq buni XVI asrda butun ilm-fan sohasini ifodalagan va boshqargan Shayxulislom instituti bilan birlashtirish mumkin emas. Darhaqiqat, Shayxulislom unvoni Istanbul muftiyasi uchun qo‘llanilgan unvon bo‘lib, XVI asr boshlarida davlat ichida amalga oshirilgan qayta tashkil etish bilan byurokratik islohotga uchradi<sup>26</sup>.

Usmonlilar tarixi davomida shayxulislomlarning tayinlanishi sulton va sadr vazirning ishi bo‘lgan. Ilm-fan sohasi izchil rivojlanayotgan XVI asrda shayxulislomlarni tayinlash sadr vazirning taklifi va sultonning roziligi bilan ma‘lum bir ma‘lumot va tajribaga ega bo‘lgan ulamolar orasidan vazir tomonidan amalga oshirilgan. Shayx ul-islomlar ulamolarga xos oq bosh kiyim kiyar, sayyid bo‘lganlar esa bu bosh kiyimni yashil tul bilan o‘rab olishardi. Marosim kiyimi sifatida “farveyi beyza” deb atalgan syurur mo‘ynasi bilan ishlangan oq xalat kiyildi. Yangi tayinlangan shayx ul-islomlar saroyga chaqirilib, ularning tayinlanishlari haqida ma‘lum qilinib, tantanali ravishda “farveyi beyza” deb nomlangan tantanali kiyim kiyishgan. Bayramzoda Zakariya afandini shayxulislom etib tayinlash uchun uyushtirilgan marosimni batafsil qayd etgan tarixchi Saloniki, marosim kiyimidagi 10 nafar serjant Shayxulislomni uyidan olib, devonxonaga olib kelganini yozadi. Durrizoda Ataulloh afandi 1783-yili saroyga taklif qilingan va ulug‘ vazir Xalil Hamid posho ishtirok etgan marosimda shayx-ul-islom darajasiga ko‘tarilgan. Rumeli qal‘asi yonidagi saroyi uzoqda bo‘lgani uchun tabrik marosimi sobiq shayxulislomlardan Sharif afandining Fotihdagi qasrida o‘tkazildi. Shayx ul-islomlar olamdan o‘tganlarida maxsus marosim o‘tkazilib, janoza namozi odatda Fotih masjidida o‘qilgan.

Usmonlilar davlatida ilk Shayxulislom Mulla Fanariy bo‘lsa, mashxurlikka erishgan va eng uzoq (29 yil) bu lavozimda faoliyat olib borgan shaxs Ebusuud Efendi hisoblanadi. U 1490-yil Imadiya (hozirgi Amasya viloyati, Turkiya) nomli joyda tavallud topgan. To‘liq ismi Mehmed ibn Mustafa el-imadi bo‘lib, lekin tarixda Ebusuud Efendi nomi bilan mashxur. Bu inson yoshligidan Qur‘on, hadis, fiqh, tafsir, arab va fors tillarini mukammal o‘rgandi. Istanbul va boshqa ilm markazlarida tahsil olib, Hanafiya fiqhi bo‘yicha chuqur bilim

<sup>25</sup> <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/shayx-ul-islom-qanday-unvon>. chop etilgan vaqti 18/09/2025.

<sup>26</sup> Ekrem Kaydu, “Usmonli davlatida Shayxulislomlik muassasasining vujudga kelishi”, İİFD, № 2 (1977), 201–209-betlar.

egalladi. Ebussuud isqilipli shayx Muhiddin Muhammad afandining o‘g‘li edi. 1530-yillarda Ebussuud Bursa, Istanbul va Rumelida qozi bo‘lib ishlagan va u yerda mahalliy qonunlarni islom ilohiy qonuniga (shariatga) muvofiqlashtirgan. Sulton Sulaymon uni 1545 yilda oliy sudya va oliy mansabdor shayxulislomga ko‘tardi, bu lavozimni Ebussuud vafotigacha egallab, qudratining cho‘qqisiga olib chiqdi<sup>27</sup>.

Ebussuud "Qonunchi" Sulaymon bilan birgalikda Usmonli huquqshunosligini qayta tashkil qildi va uni qattiqroq hukumat nazorati ostiga oldi, shariat va Usmonli ma'muriy kodeksiga (qonun) qo‘shiladigan qonunchilik bazasini yaratdi. Avval hukmron bo‘lgan qozilar shariatni, hatto hukmdor ham bo‘ysunadigan qonunni talqin qilishda erkindir, degan fikrda bo‘lsa-da, Ebussuud sud hokimiyati Sultondan olinadigan va sudyalarni qonunni qo‘llashda Sultonning "qonun-nomlari"ga, ya'ni "qonun maktublariga" amal qilishga majbur qiladigan asos yaratdi.

Sud-huquq islohotlaridan tashqari, Ebussuud chiqargan turli fatvolari bilan ham yodda qolgan. Uning Karag‘oz o‘yinlari va o‘sha paytdagi yangilik bo‘lgan kofe iste‘moliga ruxsat beruvchi fikrlari ayniqsa e’tirof etilgan. U, shuningdek, ba’zi vaziyatlarda ribo (foiz) bilan bog‘liq pul muomalasiga ruxsat beruvchi keng bahsli fatvo bilan mashhur. Bu fikrga ko‘pincha zamonaviy musulmon modernistlari murojaat qilishadi. Ebussuudning "Ma'ruhod" nomi bilan mashhur bo‘lgan fatvo to‘plamlari zamonaviy ilm-fanda katta e’tiborga sazovor bo‘lib, undan keyin kelgan huquqshunos olimlarning avlodlari tomonidan ko‘p iqtibos keltirildi. Ebussuud namoz, tahorat, shartnomalar, diniy asoslar va sufiylarning amallari kabi turli ko‘rinishdagi zamonaviy masalalarga fatvolar yozgan<sup>28</sup>. Uning fatvolarining ahamiyati Usmonli fiqhini tizimlashtirishdadir. U imperatorlik yer va soliq tizimlarini shakllantirdi va ularni Hanafiy fiqhiy an‘analari bilan uyg‘unlashtirdi. U, shuningdek, Usmonli huquqiy amaliyotining ko‘p jihatlarini, jumladan, naqd vaqf institutini ham shakllantirgan. Uning fatvolardagi huquqiy fikrlari har doim ham qonuniylashmagan yoki davlat imtiyozlari tarafida bo‘lmagan. U, masalan, Usmonlilar huquqidagi ba’zi qoidalar diniy qonunlarga zid ekanligini, masalan, yersiz dehqonlardan so‘rov solig‘ini undirish, jinoyatda gumon qilinganlarni qiynoqqa solish va cho‘chqalardan soliq undirish kabilarni e‘lon qildi. Ebussuudning Usmonli yer va soliq qonunchiligiga qo‘shgan hissalarini zamonaviy tarixshunoslikda katta qiziqish uyg‘otgan bo‘lsa-da, uning bu boradagi fikrlari fatvolarida cheklangan joy egallagan. Buning o‘rniga, Ebussuud fatvolarida ikkita keng ko‘lamli aniqlangan shartnoma va mulk bilan bog‘liq masalalar va diniy-aqidaviy, jamoat (jumladan, musulmon bo‘lmaganlar) va oilaviy masalalar kabi iqtisodiy muammolar edi. Umuman olganda XVI asrda Ebussuud Afandi shaxsida Shayxulislomlik lavozimi o‘z cho‘qqisiga yetdi. U shariat va qonun (qonun-noma) o‘rtasida uyg‘unlik yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Ebussuudning fatvolari Usmonli qonunchiligini

<sup>27</sup> İsmail Hâmi Danişmend. "Usmonli davlat arboblari" Turkiya nashriyoti, Istanbul, 1971, 114-bet. (turk tilida).

<sup>28</sup> <http://dx.doi.org/10.7827/TurkishStudies.9933>. 2016-yil. 105-118 betlar.

tizimlashtirishda hal qiluvchi o‘rin tutdi va davlat boshqaruvi bilan diniy hukm o‘rtasida ziddiyatlarning oldini oldi<sup>29</sup>. U nafaqat o‘z davrining, balki musulmon huquqiy tafakkurining ham eng yorqin vakillaridan biri sifatida tarixga kirdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, Shayxulislomlik instituti musulmon siyosiy-huquqiy tizimining yuksak darajadagi diniy lavozimlaridan biri sifatida shakllanib, o‘z tarixida uzoq va murakkab evolyutsiyani bosib o‘tgan. IX–X asrlarda “Shayx al-Islom” unvoni ilm va taqvosini bilan tanilgan yirik muhaddis va faqihlarga hurmat ramzi sifatida berilgan bo‘lsa-da, bu davrda u rasmiy davlat lavozimiga ega emas edi. Faqat XIV asrdan boshlab, ayniqsa Usmonlilar davlatida, Shayxulislomlik markazlashgan diniy-huquqiy hokimiyatning ajralmas bo‘g‘iniga aylandi.

Usmonlilar davlati bu lavozimni nafaqat diniy fatvo beruvchi oliy muftiy sifatida, balki siyosiy-huquqiy muvozanatni ta‘minlovchi markaz sifatida shakllantirdi. Shayxulislom davlat qonunlarini shariat me‘yorlariga muvofiqlashtirish, sulton farmonlarini shar‘iy jihatdan asoslash, xalq va hukmdor o‘rtasida vositachilik qilish kabi vazifalarni bajargan. Bu jihatdan u faqat diniy rahbar emas, balki davlatning ma‘naviy legitimligini ta‘minlovchi strategik shaxs bo‘lib xizmat qilgan.

Demak, Shayxulislomlik Usmonlilar davlati misolida diniy-huquqiy institutlarning siyosiy tizimga chuqur singib ketishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta‘sirini yaqqol ko‘rsatadi. Uning tarixi shuni isbotlaydiki, ilm, taqvo va siyosiy mas‘uliyat uyg‘unligi jamiyat hayotida uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlovchi asosiy omillardan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Choriyev “ Tarixiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati ,, T. 2002-yil. 264-bet
2. Encyclopaedia of Islam (Brill) “Shaykh al-Islām” maqolasi. 2-chi nashr: 1954–2005; Umumiy ensiklopedik ma‘lumotlar (ensiklopediyaning keng miqyosli va seriyali nashrlari asosida).
3. <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/shayx-ul-islom-qanday-unvon>. chop etilgan vaqti 18/09/2025.
4. Ekrem Kaydu, “Usmonli davlatida Shayxulislomlik muassasasining vujudga kelishi”, İİFD, № 2 (1977-yil), 201–209-betlar.
5. Ismail Hâmi Danişmend.” Usmonli davlat arboblari” Turkiya nashriyoti, Istanbul, 1971-yil. 114-bet. (turk tilida).
6. <http://dx.doi.org/10.7827/TurkishStudies.9933>. 2016-yil. 105-118 betlar.

<sup>29</sup> Mehmet Ertuğrul Düzdağ, Shayxulislom Abu Su‘ud Efendi fatvolari asosida XVI asr turk hayoti, Enderun Kitabevi, Istanbul, 1972, 109–117-betlar.

7. Mehmet Ertuğrul Düzdağ. “Shayxulislom Abu Su’ud Efendi fatvolari asosida XVI asr turk hayoti”. Enderun Kitabevi, Istanbul, 1972-yil. 109–117-betlar.